

"O'ZKIMYOSANOAT" AJ RASMIY BAYONOTI

// 09.11.2022

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/uzkimyosanoat-aj-rasmiy-bayonot>



Facebook ijtimoiy tarmog'ida "Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo'yicha Hukumat komissiyasi yig'ilishning 17-son bayoni ijrosi "O'zbekimiyosanoat" AJ tomonidan bajarilmayotganligi to'g'risida asoslanmagan postlar e'lon qilindi. Holat yuzasidan "O'zbekimiyosanoat" AJ quyidagilarni ma'lum qiladi.

Hukumat komissiyasi yig'ilishining 17-son bayoni 1-ilovasi 16-bandiga muvofiq Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi va "O'zbekimiyosanoat" AJga "Surxon KSP-Grand" MChJga formalin-37% va karbamid yetkazib berish bo'yicha topshiriq berilgan. Bunda formalin-37% narxini dunyo bozori narxlariga tenglashtirish va karbamid narxining birja savdolari talabiga muvofiq qo'yilishi belgilangan. Mazkur topshiriq ijrosi o'z vaqtida ta'minlanib, ijrosi yuzasidan joriy yilning 31-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga axborot berilgan.

Topshiriq ijrosini o'z vaqtida ta'minlash maqsadida "O'zbekimiyosanoat" AJ tomonidan bir qator tizimli ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, formalin-37% narxi oxirgi uch yilda 4,3 mln so'mdan 2,9 mln so'mga (QQS bilan) tushirildi. Shu bilan birgalikda, ishlab chiqarish quvvatlari yangi ishga tushirilgan investitsiya loyihalari hisobiga 8 ming tonnadan 48 ming tonnaga oshirildi. Mazkur investitsiya loyihasi Italiyaning "Alder" kompaniyasi litsenziyasi asosida Avstriyalik investorlar tomonidan ishga tushirilgan. Shu bilan birga, formalin-37% mahsulotining 2021-yildagi import tahliliga ko'ra, o'tgan yili respublikaga qiymati 1,2

mln dollarga teng 4120,0 tonna mahsulot import qilingan, o'rtacha bir tonna mahsulot narxi 306 dollarni (QQSsiz) tashkil etgan. Kimyo tarmoq korxonalarining ishlab chiqarish quvvatlarining oshirilishi va tannarxining pasaytirilishi evaziga 2022-yilning 9 oyida 118,1 tonna mahsulot import qilingan.

Shuningdek, 2021-yilda respublikada 48 ming tonna formalin ishlab chiqarish quvvati mavjud bo'lgan bo'lib, quvvatlardan foydalanish darajasi o'rtacha 40% dan kamni tashkil etgan. Birja savdolariga 15 ming tonna formalin sotuvga chiqarilib, shundan 6,6 ming tonna mahsulot mahalliy tadbirkorlar tomonidan sotib olingan. Joriy yilda ushbu turdagi mahsulot 11,0 ming tonna miqdorda birja savdolariga qo'yilib, shundan 9,2 ming tonna mahsulot mahalliy tadbirkorlarga realizatsiya qilingan.

Qolaversa, "Maxam-Chirchiq" AJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan "A" markali karbamid mahsulotini ishlab chiqarish va birjaga qo'yish grafiklari kunma-kun sotish hajmlari ko'rsatilgan holda o'rnatilgan tartibda tasdiqlanib, O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo birjasi va Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasiga yuboriladi. Ushbu mahsulot birjada alohida shartnomada 68 tn vagonda va 10 tn lotlarda qo'yiladi. Ushbu shartnomadagi savdolarida qishloq xo'jaligi korxonalari (fermer, klaster va boshqalar) ishtirok etmaydi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlangan topshiriq ijrosi bo'yicha "A" markali karbamid grafik asosida birja savdolariga har oyda 1,2 ming tonnadan muntazam ravishda qo'yib borilayotganligi sababli bugungi kunda birja savdolarida o'rtacha narx 3,5 mln so'mdan 2,3 mln so'mga pasaydi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev raisligida 7-noyabr kuni mahalliy sanoatni rivojlantirish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida berilgan topshiriqqa asosan formalin mahsuloti narxi 150 000 so'mga pasaytirilib, bugungi kundagi narxi 2 734 200 so'mni (QQS bilan) tashkil etdi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mavzuga oid aniq, batafsil ma'lumotlarga ega bo'lmay turib, jamoatchilik orasida tushunmovchilik va muhokamalarga sabab bo'ladigan fikrlarni bayon qilishdan oldin "O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmatiga murojaat qilishingiz maqsadga muvofiq ekanligini, shuningdek, "O'zkiyosanoat" AJ OAV va blogerlar uchun doim ochiqligini yana bir bor eslatib o'tamiz.

"O'zkiyosanoat" AJ Matbuot xizmati